TOSHKENT DALAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

BEKCHANOV FAXRIDDIN ATABEKOVICH

AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI SOHASIDA MOLIYAVIY NATIJALAR HISOBI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent - 2025

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам

Content of dissertation the abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on economical sciences

TOSHKENT DALAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

BEKCHANOV FAXRIDDIN ATABEKOVICH

AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI SOHASIDA MOLIYAVIY NATIJALAR HISOBI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent - 2025

Falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan B2024.1.PhD/Iqt3814 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsue.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz) manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Xajimuratov Nizomjon Shukurullayevich**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Ibragimov Abdugapur Karimovich**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ochilov Ilxom Sayitqulovich
iqtisodiyot fanlari doktori

Yetakchi tashkilot: **"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi DSc.03/10.12.2019.I.16.01. raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "11" 09 soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72. Faks: (99871) 239-43-51. E-mail: tsue_info@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1753-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72. Faks: (99871) 239-43-51. E-mail: tsue_info@tsue.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "28" 08 kuni tarqatildi.

(2025-yil "28" 08 dagi 69-raqamli reyestr bayonnomasi).

S.U. Mexmonov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

U.V. Gafurov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, i.f.d., professor

S.K. Xudoyqulov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

issertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Hozirgi global raqobat va siyalar tezkorligi sharoitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari agi korxonalarning moliyaviy natijalarini samarali hisob-kitob qilish va tahlil rurati bilan belgilanadi. AKT sohasidagi korxonalar iqtisodiy barqarorlikka va innovatsiyalarni joriy etish orqali bozorda o‘z pozisiyalarini kamlash uchun moliyaviy natijalar hisobini aniq va samarali tashkil etishga muhtoj. Jahon iqtisodiyotida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sohasida moliyaviy natijalar hisobi va auditini takomillashtirish «moliyaviy hisobotning ishonchliligi va shaffofligini oshirish orqali investorlar ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu esa, o‘z navbatida, kapital xarajatlarini kamaytirib, iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiradi»[1]. Shuningdek, «sun’iy intellekt va boshqa ilg‘or texnologiyalarni moliyaviy hisobot va audit jarayonlariga integratsiyalashtirish auditning aniqligi va samaradorligini oshirib, real vaqt rejimida xatarlarni aniqlash va moliyaviy axborotning ishonchliligini ta’minlash imkonini beradi»[2]. Shu asosda AKT sohasida moliyaviy hisobot va audit tizimlarini takomillashtirish global iqtisodiy barqarorlik va investision muhitni yaxshilashda muhim omil hisoblanadi.

Jahonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sohasida moliyaviy natijalar hisobi va auditini takomillashtirishga oid ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlari sifatida raqamli audit metodologiyasini takomillashtirish, moliyaviy hisobotlarda axborot xavfsizligi va ma’lumotlarning butunligini ta’minlash mexanizmlarini ishlab chiqish, katta ma’lumotlar (Big Data) va sun’iy intellekt texnologiyalari asosida moliyaviy hisobotlarning real vaqt tartibida tahlil qilish vositalarini takomillashtirish hamda xalqaro standartlarga muvofiq AKT kompaniyalarining moliyaviy hisobotini to‘g‘ri baholash metodologiyasini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish belgilanmoqda.

O‘zbekistonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasining izchil rivojlanishi, raqamli iqtisodiyotning barpo etilishi va davlatning ushbu sohadagi strategiyasi moliyaviy natijalar hisobining aniqligi va samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlarning ahamiyatini kuchaytirmoqda. Hozirgi raqamli transformatsiya jarayonlari, globallashuv va iqtisodiyotning raqamli isloh qilinishi AKT sohasidagi korxonalar oldiga yangi talab va imkoniyatlarni qo‘ymoqda. AKT sohasida moliyaviy natijalar hisobini o‘rganishning zarurati bir qator omillar bilan asoslanadi. Birinchidan, mazkur sohaga xos bo‘lgan yuqori texnologiyalar, innovatsiyalar va tezkor o‘zgarishlar moliyaviy tahlil usullarini takomillashtirishni talab etadi. Ikkinchidan, raqobatbardosh bozor sharoitida faoliyat yurituvchi AKT korxonalari moliyaviy natijalar hisobini yuritishda yuqori darajadagi aniqlik va tezkorlikka ehtiyoj sezadi. Uchinchidan, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan yangi qoidalar va standartlar moliyaviy natijalar hisobini xalqaro miqyosda muvofiqlashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Moliyaviy natijalar hisobining dolzarbligi shundaki, uning aniqligi va samaradorligi AKT sohasidagi

[1] https://pcaobus.org/news-events/speeches/speech-detail/the-role-of-the-audit-in-the-global-economy_455
[2] https://assets.kpmg.com/content/dam/kpmgsites/xx/pdf/2024/04/ai-in-financial-reporting-and-audit-web.pdf.coredownload.inline.pdf

korxonalarning faoliyatini to‘g‘ri baholash va ularning kelgusidagi rivojlanish istiqbollarini belgilashda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, moliyaviy natijalarni tahlil qilish orqali korxonalar o‘z resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladi, bu esa ularning raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli, mazkur mavzu zamonaviy iqtisodiy tahlillar va AKT sohasidagi amaliyotga mos keluvchi ilmiy yondashuvlarni rivojlantirish uchun o‘ta muhim hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-avgustdagi PQ-357-son “2022-2023-yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 10-fevraldagi PQ-4986-son “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini yanada rivojlantirishga investisiyalarni jalb qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 21-dekabrdagi 673-son “Soliq ma’muriyatchiligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2023-yil 4-sentyabrdagi 447-son “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi xizmatlar turlari ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2023-yil 15-avgustdagi 387-son “Auditorlik tashkilotini Auditorlik tashkilotlarining reyestriga kiritish bo‘yicha davlat xizmatlarini ko‘rsatishning ma’muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2021-yil 7-maydagi 288-son “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2023-yil 14-avgusdagi 377-son “Vazirlik va idoralarning ichki audit xizmatlari faoliyatini baholash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”, 2022-yil 28-sentyabrdagi 538-son “Auditorlik tashkilotining ishi sifatini tashqi nazoratdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”, 2022-yil 1-avgustdagi 416-son “Vazirlik va idoralarning ichki audit xizmati to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida”, 2021-yil 5-martdagi 122-son “Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish hamda sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 26-yanvardagi 37-son “Davlat xaridlarini amalga oshirishda xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish jarayonlarini axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yanada takomillashtirish choralari to‘g‘risida”gi qarorlari va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovasion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga mos ravishda bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sohasida moliyaviy natijalarni hisoblash va tahlil qilish masalasi ilmiy jamoatchilik tomonidan o‘rganib kelinayotgan muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu mavzuga oid turli tadqiqotlar o‘tkazilgan bo‘lib, ularning aksariyati moliyaviy natijalarning nazariy asoslarini ochib berishga qaratilgan. Shu

bilan birga, qator tadqiqotlar AKT sohasidagi moliyaviy natijalar hisobining o‘ziga xos jihatlarini to‘liq qamrab olgan deb aytish qiyin.

Moliyaviy natijalar hisobi va auditining o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq masalalarni o‘rganishga xorijiy olimlardan V.I.Bogatыreva, Ya.V.Bosenko, N.D.Brovkina, A.Yu.Busheva, N.I.Vakulenko, N.G.Garchuk-Ivancha, O.I.Gusarova, M.A.Yeremina, A.V.Kolыchev, N.Yu.Koroleva, L.R.Lileyeva, G.I.Lipakov, I.Yu.Nikonova, A.X.Popova, A.A.Teplyakov, Ye.V.Tretyakova va A.S.Xusainova[3] va boshqalar, O‘zbekistonlik olimlardan N.B.Abdusalomova, I.R.Avazov, A.Z.Avlokulov, K.B.Axmedjanov, M.A.Axmedov, B.F.Boronov, R.D.Dusmuratov, S.A.Jumanazarov, A.K.Ibragimov, Sh.I.Ilxomov, A.A.Karimov, J.E.Kurbanbayev, I.N.Qo‘ziyev, A.N.Maxmudov, X.H.Nazarov, N.K.Rizayev, A.X.Sattorov, T.T.Sattorov, Sh.Tojiboyeva, M.M.Tulaxodjayeva, K.B.Urazov, Sh.Sh.Usmanov, O.N.Xolmurodov, D.G.Xudaynazarova, Sh.A.Halilov, Z.B.Eshpulatova[4]lar moliyaviy natijalar hisobi va auditini takomillashtirish borasida ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

---

[3] Богатырева В.И. Учет доходов, расходов и финансовых результатов в условиях адаптации к международным стандартам финансовой отчетности: Автореф. дис. на соиск. учен. степ. к.э.н. – Орел: Государственный университет, 2012. – 26 с.; Босенко Я.В. Развитие организационно-методического обеспечения учета финансовых результатов деятельности экономического субъекта. Автореф. дис. на соиск. учен. степ. к.э.н. – Ставрополь: Ставропольский государственный аграрный университет, 2018. – 26 с.; Бровкина Н.Д. Планирование аудита отчета о прибылях и убытках: (На примере торгового предприятия). Автореф. дис. на соиск. учен. степ. к.э.н. – М.: 2002. – 25 с.; Бушева А.Ю. Методические подходы совершенствования учета финансовых результатов на промышленных предприятиях. Автореф. дис. на соиск. учен. степ. к.э.н. - Орел, 2002. – 23 с.; Вакуленко Н.И. Совершенствование управленческого учета прибыли от операционной деятельности авиаремонтных предприятий. Автореф. дис. на соиск. учен. степ. к.э.н. – Ростов н/Д, 2003. – 26 с.; Гарчук-Иванча Н.Г. Учет и аудит консолидированных финансовых результатов холдинга. Автореф. дис. на соиск. учен. степ. к.э.н. – Саратов, 2007. – 20 с.; Гусарова О.И. Организация и методика проведения аудита финансовых результатов в коммерческих организациях: Автореф. дис. на соиск. учен. степ. к.э.н. – Москва: Всероссийский заочный финансово-экономический институт, 2005. – 24 с.; Еремина М.А. Управленческий учет финансовых результатов центров прибыли организации: Автореф. дис. на соиск. учен. степ. к.э.н. – Новосибирск: Новосибирский государственный университет экономики и управления, 2006. – 25 с.; Колычев А.В. Учет финансовых результатов и составление отчетности в соответствии с международными стандартами: Автореф. дис. на соиск. учен. степ. к.э.н. – Волгоград: Волгоградская государственная сельскохозяйственная академия, 2001. – 26 с.; Королева Н.Ю. Развитие методического обеспечения процесса аудита учета финансовых результатов коммерческих организаций: Автореф. дис. на соиск. учен. степ. к.э.н. – Ростов-на-Дону: Донской государственный аграрный университет, 2007. – 28 с.; Лилеева Л.Р. Бухгалтерский учет в сфере связи и телекоммуникаций: – М.: автореф. дис. на соискание ученой степени к.э.н., 2007. – 28 с.; Липаков Г.И. Аудит бухгалтерской (финансовой) отчетности хозяйствующих субъектов с иностранными инвестициями: Автореф. дис. на соиск. учен. степ. к.э.н. – Москва: Российский университет кооперации, 2011. – 26 с.; Никонова И.Ю. Формирование учетно-аналитической информации о финансовых результатах организации: Автореф. дис. на соиск. учен. степ. к.э.н. – Иркутск: Байкальский государственный университет экономики и права, 2008. – 25 с.; Попова А.Х. Теоретические и методологические концепции аудита в соответствии с международными стандартами: Автореф. дис. на соиск. учен. степ. д.э.н. – Орел: Орловский государственный технический университет, 2007. – 44 с.; Тепляков А.А. Концептуальные основы системного подхода к аудиту финансовых результатов: Автореф. дис. на соиск. учен. степ. к.э.н. – Тюмень: Тюменский государственный архитектурно-строительный университет, 2007. – 26 с.; Третьякова Е.В. Особенности учета доходов и расходов операторами сотовой связи: Автореф. дис. на соиск. учен. степ. к.э.н. – Екатеринбург: Уральский государственный экономический университет, 2008. – 27 с.; Хусаинова А.С. Адаптация системы учета финансовых результатов в сельскохозяйственных организациях к МСФО: Автореф. дис. на соиск. учен. степ. к.э.н. – Санкт-Петербург: Санкт-Петербургский государственный аграрный университет, 2005. – 28 с.

[4] Abdusalomova N.B. Buxgalteriya hisobi. Darslik. – T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2021 – 944 b.; Авазов И.Р. Консолидациялашган молиявий ҳисоботни текширишда аудиторлик далилларини тўплаш ва уни такомиллаштириш. Иқтисод ва молия/Экономика и финансы. 2020, 2(134). – Б. 105-110.; Avlokulov A.Z. Moliyaviy natijalar hisobi va auditi: nazariya, metodologiya va amaliyot. Monografiya. – T.: Iqtisod-moliya, 2019. - 192 b.; Axmedjanov K.B., Sattorov A.X. Auditga kirish. Darslik. – T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2021, 448 b.; Боронов Б.Ф., Ахмедов М.А., Худайназарова Д.Г. Корхоналарда даромадлар ва харажатларни бошқа умумлашган даромадлар тўғрисидаги ҳисоботда акс эттириш масалалари. "Экономика и социум"

Biroq, ushbu tadqiqotlarda O‘zbekiston sharoitidagi AKT sohasining o‘ziga xos xususiyatlari va xalqaro standartlarga moslashuv jarayonlari yetarlicha ko‘rib chiqilmagan. Shu bilan birga, amaliyotda ushbu yondashuvlarni qo‘llash borasidagi mexanizmlar yetarli darajada yoritilmagan.

Tadqiqotning dissertasiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishining mavzusi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida moliyaviy natijalar hisobi va auditini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari :

moliyaviy natijalar hisobining nazariy-uslubiy asoslarini tadqiq etish;

AKT sohasidagi moliyaviy natijalarni shakllantirish jarayonining o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish;

moliyaviy natijalar hisobi va auditining xalqaro standartlarga muvofiqligini baholash;

O‘zbekistonda AKT sohasidagi moliyaviy natijalar hisobi va auditi amaliyotini tadqiq etish;

moliyaviy natijalarning tahlil va auditidagi mavjud muammolarni aniqlash;

AKT sohasida moliyaviy natijalar hisobi bo‘yicha sintetik va analitik mexanizmlarni baholash;

AKT sohasida daromad va xarajatlarni hisobga olish mexanizmlarini optimallashtirish bo‘yicha yangi yondashuvlar ishlab chiqish;

moliyaviy natijalar hisobotlarini xalqaro standartlarga muvofiq ravishda transformatsiya qilish bo‘yicha tavsiyalar berish;

AKT korxonalari uchun moliyaviy natijalarni iqtisodiy-matematik modellashtirish;

byudjetlashtirish jarayonlarini takomillashtirish maqsadida moliyaviy natijalar modellarini yaratish;

№3(118)-2 2024. – Б. 547-556; Дусмуратов Р.Д., Ризаев Н.К., Назаров Х.Ҳ. Молиявий ҳисобот ва аудитнинг халқаро стандартлари. Ўқув қўлланма. – Т.: Иқтисод-молия, 2020. – 512 б.; Ибрагимов А.К. Ишлаб чиқариш харажатлар ҳисоби, аудити ва қишлоқ хўжалик маҳсулотлари таннархини аниқлашни такомиллаштириш. и.ф.д. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. автореф. – Т.: 2002. – 41 б.; Karimov A.A., Kurbanbayev J.E., Jumanazarov S.A., Halilov Sh.A. Moliyaviy hisob va hisobot. O‘quv qo‘llanma. – T.: Iqtisod-Moliya, 2018. - 496 b.; Махмудов А.Н. Молиявий ҳисоботлар аудитини такомиллаштириш. International scientific-practical conference «Green economy - the economy of the future: innovations, investments and prospects». April 24, 2024. – Б. 760-766.; Tulaxodjayeva M.M., Ilxomov Sh.I., Ahmadjonov K.B. va boshq. Audit. Darslik. –T.: TDIU, 2018.; Сатторов Т.Т. Корхоналар тақсимланмаган фойдасига аудит текшируви натижалари асосида тузатишлар киритишнинг услубий жиҳатлари. Journal of marketing, business and management (JMBM)/SJIF. factor: 5.57. volume 2, issue 1 2023 (April). pp. 36-44.; Тожибоева Ш. Молиявий натижалар тўғрисидаги ҳисобот аудитида таҳлилий амаллардан фойдаланиш. “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 2, март-апрель, 2019. – Б. 1-8.; Urazov K.B. Buxgalteriya moliyaviy hisobi. O‘quv qo‘llanma. – Samarqand. SamISI, 2013.- 228-bet.; Холмуродов О.Н. Молиявий натижалар аудитини такомиллаштириш. Iqtisodiy tarqqiyot va tahlil. Ilmiy electron jurnal. №6, Iyun, 2024 – Б. 482-488.; Эшпулатова З.Б., Усманов Ш.Ш. Молиявий фаолиятдан олинган даромадлар ҳисобини халқаро стандартлар асосида такомиллаштириш. "Экономика и социум" №4(107)-2 2023. – Б. 787-794.; Қўзиев И.Н. Иқтисодиётни модернизациялаш шароитида аудиторлик ҳисоботини тузиш ва умумлаштириш методологиясини такомиллаштириш: и.ф.д. илмий даражасини олиш учун дис. автореф. – Т.: 2017. -70 б.

AKT korxonalaridagi auditorlik faoliyati samaradorligini oshirish uchun maxsus standartlar ishlab chiqish;

moliyaviy natijalar hisobi va auditini takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berish.

Tadqiqotning ob’yekti O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yurituvchi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasi korxonalari faoliyati hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yurituvchi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasi korxonalari moliyaviy natijalar hisobi va auditini takomillashtirish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar majmuidan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada guruhlash, taqqoslash, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, iqtisodiy-statistik tahlil, ikkiyoqlama yozuv kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

AKT sohasidagi korxonalari hisob siyosatida daromadlarni shakllantirishda 9030-“Ishlar bajarish va xizmatlar ko‘rsatishdan daromadlar” schyotining tarkibida 9031-“Ovozli qo‘ng‘iroqlar daromadlari”, 9032-“Mobil internet xizmatlari daromadlari”, 9033-“Rouming va xalqaro qo‘ng‘iroqlar daromadlari”, 9034-“Virtual serverlarni ijaraga berishdan daromadlar”, 9035-“Arxivlash va ma’lumotlarni saqlash xizmatlari daromadlari”, 9036-“VPN va korporativ bulutli xizmatlardan daromadlar”, 9037-“Televideniye obunalaridan daromadlar”, 9038-“Televideniye reklama xizmatlaridan daromadlar” va 9039-“Qo‘shimcha xizmatlardan daromadlar” subschyotlarini kiritish asosida AKT sohasidagi korxonalarida daromadlar bo‘yicha buxgalteriya hisobining to‘liq va aniq yuritilishini ta’minlash asoslangan;

AKT sohasidagi korxonalarda xarajatlarni hisobga olish bo‘yicha 9130-“Bajarilgan ish va ko‘rsatilgan xizmatlar tannarxi” schyotining tarkibida 9131-“Mobil aloqa tarmog‘i texnik xarajatlari”, 9132-“Mobil aloqa uskunalarining amortizatsiyasi”, 9133-“Virtual serverlarni ijaraga berish xarajatlari”, 9134-“Arxivlash va ma’lumotlarni saqlash xarajatlari”, 9135-“VPN va korporativ bulutli xizmatlar xarajatlari”, 9136-“Televideniye obunalari xarajatlari”, 9137-“Televideniye tarmog‘i texnik xarajatlari” va 9138-“Internet uskunalarining amortizatsiyasi va infratuzilmasi xarajatlari” subschyotlarini kiritish asosida AKT sohasidagi korxonalarida xarajatlar bo‘yicha buxgalteriya hisobining to‘liq va aniq yuritilishini ta’minlash asoslangan;

moliyaviy natijalar auditini amalga oshirishda yuzaga keladigan xatolarni tizimli baholashda “Tipik xatolar klassifikatori va ularni oldini olish uchun maxsus profilaktika dasturi”ni ishlab chiqish orqali AKT korxonalarida audit samaradorligini oshirish taklifi asoslangan;

“O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasi tarkibidagi AKT korxonalarining sotish hajmlari va iste’mol qilinadigan resurslarni iqtisodiy-matematik modellashtirish va chiziqli dasturlash usullaridan foydalangan holda optimallashtirish asosida 2027-yilga qadar foydani ko‘paytirish prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

moliyaviy natijalar auditini samarali va tizimli amalga oshirish maqsadida olti bosqichdan iborat uslubiyoti taklif etilgan;

AKT korxonalarining foydasini boshqarish maqsadida ikki tomonlama optimallashtirish dasturlash usulidan foydalangan holda moliyaviy natijalarni modellashtirish taklif etilgan;

AKT korxonalarining boshqaruv hisobida uning moliyaviy natijalarini hisobga olgan holda byudjetlashtirish tizimi ishlab chiqilgan;

AKT korxonalarining "Foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot" shaklini MHXSga muvofiq tayyorlangan hisobotga aylantirish algoritmi ishlab chiqilgan;

AKT sohasidagi korxonalar uchun moliyaviy natijalarni hisobga olgan holda byudjetlashtirish tizimi ishlab chiqilgan;

AKT korxonalari uchun moliyaviy natijalarni iqtisodiy-matematik modellashtirish va ularni optimallashtirish bo'yicha maxsus dasturlash algoritmi ishlab chiqilgan;

AKT korxonalarida "Foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot" shaklini xalqaro standartlarga muvofiq tayyorlash algoritmi yaratilgan;

moliyaviy natijalar auditini samarali amalga oshirish uchun olti bosqichli audit metodologiyasi ishlab chiqilgan;

AKT korxonalarida xarajatlarni tahlil qilish va optimallashtirish orqali foydani ko'paytirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

AKT korxonalarida moliyaviy hisobotlarning shaffofligini ta'minlash maqsadida yangi standartlar va yo'riqnomalar joriy etilgan;

investorlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun ishonchli moliyaviy ma'lumotlarni taqdim etish bo'yicha mexanizmlar ishlab chiqilgan;

moliyaviy natijalarni shakllantirish jarayonidagi xavflarni baholash va kamaytirish uchun maxsus tahlil vositalari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot ishida foydalanilgan ma'lumotlar rasmiy manbalardan olinganligi, jumladan O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasi korxonalarining rasmiy ma'lumotlaridan foydalanganligi hamda xulosa va takliflarning tegishli vazirlik va tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, O'zbekiston Respublikasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasi korxonalari faoliyatida moliyaviy natijalar hisobi va auditni tashkil etishning nazariy va uslubiy qoidalarini va uning ishlashi bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Dissertatsiyaning ilmiy xulosa va amaliy tavsiyalaridan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasi korxonalari faoliyatida moliyaviy natijalar hisobi va auditni tashkil etishni takomillashtirish, kelajakda maxsus ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishda manba sifatida foydalanish mumkin. Dissertatsiya natijalaridan oliy o'quv yurtlarida "Buxgalteriya hisobi", "Moliyaviy hisob" va "Audit" fanlari o'quv dasturlarini takomillashtirish va o'qitish jarayonida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan, ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasi korxonalari

faoliyatida moliyaviy natijalar hisobi va auditni tashkil etish va ularning faoliyatiga tatbiq etishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida moliyaviy natijalar hisobi va auditini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar asosida:

AKT sohasidagi korxonalari hisob siyosatida daromadlarini shakllantirishda 9030-“Ishlar bajarish va xizmatlar ko‘rsatishdan daromadlar” schyotining tarkibida 9031-“Ovozli qo‘ng‘iroqlar daromadlari”, 9032-“Mobil internet xizmatlari daromadlari”, 9033-“Rouming va xalqaro qo‘ng‘iroqlar daromadlari”, 9034-“Virtual serverlarni ijaraga berishdan daromadlar”, 9035-“Arxivlash va ma’lumotlarni saqlash xizmatlari daromadlari”, 9036-“VPN va korporativ bulutli xizmatlardan daromadlar”, 9037-“Televideniye obunalaridan daromadlar”, 9038-“Televideniye reklama xizmatlaridan daromadlar” va 9039-“Qo‘shimcha xizmatlardan daromadlar” subschyotlarini kiritish bo‘yicha taklifi “O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasi, “O‘zbekiston pochtasi” aksiyadorlik jamiyati tomonidan amaliyotga joriy etilgan (“O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasining 2024-yil 15-oktyabrdagi 08/133-sonli, “O‘zbekiston pochtasi” aksiyadorlik jamiyati ning 2024-yil 30-noyabrdagi 178-sonli ma’lumotnomalari). Mazkur taklifni amaliyotga joriy etish natijasida AKT sohasidagi korxonalari hisob siyosatida yangi subschyotlar hisobini yuritish orqali daromadlarning maqsadli tahlili va optimal taqsimoti ta’minlanib, umumiy samaradorligini oshirishga yordam bergan va har bir daromad turi bo‘yicha alohida hisob yuritilishi orqali moliyaviy hisobotlarda shaffoflik va ishonchlilik ta’minlash imkoni yaratilgan;

AKT sohasidagi korxonalari hisob siyosatida xarajatlarni hisobga olishda 9130-“Bajarilgan ish va ko‘rsatilgan xizmatlar tannarxi” schyotining tarkibida 9131-“Mobil aloqa tarmog‘i texnik xarajatlari”, 9132-“Mobil aloqa uskunalarining amortizatsiyasi”, 9133-“Virtual serverlarni ijaraga berish xarajatlari”, 9134-“Arxivlash va ma’lumotlarni saqlash xarajatlari”, 9135-“VPN va korporativ bulutli xizmatlar xarajatlari”, 9136-“Televideniye obunalari xarajatlari”, 9137-“Televideniye obunalari xarajatlari” va 9138-“Internet uskunalarining amortizatsiyasi va infratuzilmasi xarajatlari” subschyotlarini kiritish bo‘yicha taklifi “O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasi, “O‘zbekiston pochtasi” aksiyadorlik jamiyati tomonidan amaliyotga joriy etilgan (“O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasining 2024-yil 15-oktyabrdagi 08/133-sonli, “O‘zbekiston pochtasi” aksiyadorlik jamiyati ning 2024-yil 30-noyabrdagi 178-sonli ma’lumotnomalari). Mazkur taklifni amaliyotga joriy etish natijasida AKT sohasidagi korxonalar hisob siyosatida analitik subschyotlarga o‘tish mexanizmi xizmat turlariga qarab xarajatlarni detallashtirish va ularni hisobga olishni yengillashtirgan va xarajatlarni boshqarish tizimini yaxshilash, moliyaviy hisobotlarni shaffof qilish va samaradorlikni oshirish imkoni yaratilgan;

moliyaviy natijalar auditini amalga oshirishda yuzaga keladigan xatolarni tizimli baholashda “Tipik xatolar klassifikatori va ularni oldini olish uchun maxsus profilaktika dasturi”ni ishlab chiqish orqali AKT korxonalarida audit samaradorligini oshirish taklifi “O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasi, “O‘zbekiston pochtasi” aksiyadorlik jamiyati tomonidan amaliyotga joriy etilgan (“O‘zbektelekom”

aksiyadorlik kompaniyasining 2024-yil 15-oktyabrdagi 08/133-sonli, “O‘zbekiston pochtasi” aksiyadorlik jamiyati ning 2024-yil 30-noyabrdagi 178-sonli ma’lumotnomalari). Mazkur taklifni amaliyotga joriy etish natijasida AKT korxonalarida moliyaviy natijalar auditining samaradorligini oshirish, xato xatti-harakatlarni bartaraf etish hamda korxonaning umumiy moliyaviy barqarorligini ta’minlash uchun asos yaratilgan;

“O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasi tarkibidagi AKT korxonalarining sotish hajmlari va iste’mol qilinadigan resurslarni iqtisodiy-matematik modellashtirish va chiziqli dasturlash usullaridan foydalangan holda optimallashtirish asosida 2027 yilga qadar ishlab chiqilgan foydani ko‘paytirish prognoz ko‘rsatkichlari “O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasi, “O‘zbekiston pochtasi” aksiyadorlik jamiyati tomonidan amaliyotga joriy etilgan (“O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasining 2024-yil 15-oktyabrdagi 08/133-sonli, “O‘zbekiston pochtasi” aksiyadorlik jamiyati ning 2024-yil 30-noyabrdagi 178-sonli ma’lumotnomalari). Mazkur taklifni amaliyotga joriy etish natijasida AKT korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish, moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish, raqobatbardoshligini mustahkamlash va kelgusi strategik rejalarni amalga oshirish uchun mustahkam asos yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta, jumladan 2 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada muhokama qilingan va ijobiy xulosalar olingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 10 ta ilmiy ish, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola, jumladan 3 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 150 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob’yekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilinib, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertasiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida moliyaviy natijalar hisobi va auditining nazariy-uslubiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida moliyaviy natijalarni shakllanishi va ularning ahamiyati, daromad va xarajatlari hisobining tashkiliy-uslubiy jihatlari hamda ularni auditorlik tekshiruvidan o‘tkazish asoslari ko‘rib chiqilgan hamda bob yakunida mazkur masalalar bo‘yicha ilmiy xulosalar shakllantirilgan.

Moliyaviy natija korxonaning ma'lum davrdagi iqtisodiy faoliyatidan olingan samaradir. U asosan daromad va xarajatlar o'rtasidagi farq sifatida hisoblanadi. Bu ko'rsatkich korxona faoliyatining samaradorligini aniqlashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, u daromadlarni oshirish, xarajatlarni kamaytirish, shuningdek, barqaror moliyaviy holatni ta'minlash uchun asos bo'ladi. Korxona uchun moliyaviy natijalarning ijobiy bo'lishi, ya'ni foyda olish muhimdir, chunki bu resurslarning samarali taqsimlanishi va kelgusidagi investisiyalar uchun zarur asoslarni yaratadi.

AKT sohasida moliyaviy natijalar hisobining mohiyati juda katta ahamiyatga ega, chunki bu sohadagi faoliyat global raqobat va tezkor innovatsiyalar muhitida amalga oshiriladi. Bu sohadagi korxonalarning asosiy maqsadi - foyda olishni ta'minlash va o'z faoliyatini samarali boshqarish uchun moliyaviy natijalar hisobini to'g'ri yuritishdir. AKT sohasida moliyaviy natijalar hisobining mohiyati korxonaning kelgusidagi strategik rejalarini to'g'ri belgilashda va innovatsiyalarni joriy etish jarayonida mustahkam moliyaviy asosni yaratishda namoyon bo'ladi.

AKT sohasida daromadlar asosan quyidagi yo'nalishlar orqali shakllanadi:

1. Dasturiy ta'minot va lisenziyalar sotish: AKT sohasida ko'plab korxonalar dasturiy ta'minot vositalari va lisenziyalar sotuvidan daromad oladi. Bu turdagi daromadlar doimiy daromad manbaini yaratib, korxonalarga dasturiy mahsulotlar va platforma xizmatlarini lisenziyalash orqali foyda olish imkonini beradi. Lisenziya sotish orqali korxona ma'lum bir dastur yoki xizmatdan foydalanish huquqini sotadi va bu ko'pincha uzoq muddatli daromad manbai bo'lib xizmat qiladi.

2. Obunalik asosidagi xizmatlar: AKT sohasidagi ko'plab kompaniyalar o'z xizmatlarini obuna asosida taklif etadilar. Masalan, bulutli ma'lumotlar saqlash xizmatlari, muzokara va muloqot platformalari (misol uchun, Zoom yoki Microsoft Teams) kabi xizmatlar obuna asosida daromad keltiradi. Obuna modelida mijozlar ma'lum bir oy yoki yillik to'lov orqali xizmatlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

3. Ma'lumotlar qayta ishlash va analiz xizmatlari: AKT sohasida ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish xizmatlari katta ahamiyatga ega. Masalan, ma'lumotlarni segmentatsiya qilish, bozor tahlili yoki ma'lumotlarni optimallashtirish xizmatlari orqali daromad shakllanadi.

4. Reklama xizmatlari: AKT sohasida reklama xizmatlari ham muhim daromad manbai hisoblanadi. Masalan, Google, Facebook va Instagram kabi platformalar o'z xizmatlarini reklama orqali monetizatsiya qiladi. Bu platformalar foydalanuvchilarga moslashtirilgan reklama taklif qilish orqali ularning ishlatilish faoliyatidan daromad olishadi.

5. Aloqa va internet xizmatlari: AKT sohasidagi kompaniyalar, ayniqsa, telekommunikatsiya operatorlari va Internet provayderlari, aloqa va Internet xizmatlarini taklif qilish orqali ham daromad oladi. Bu turdagi kompaniyalar aloqa va Internet trafikni sotish, mobil va simli xizmatlardan foydalanishga imkoniyat berish orqali daromad shakllantiradilar.

Xarajatlar va ularning moliyaviy natijalarga ta'siri AKT sohasidagi korxonalar uchun katta ahamiyatga ega. Xarajatlarning to'g'ri va samarali boshqarilishi orqali korxona o'z daromadliligini oshirishi va moliyaviy barqarorlikka erishishi mumkin. Xarajatlarning turli yo'nalishlarini tahlil qilish va optimallashtirish orqali

korxonaning iqtisodiy rivojlanishi ta'minlanadi, bu esa uning bozordagi raqobatbardoshligini mustahkamlaydi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sohasida moliyaviy natijalarni hisoblash an'anaviy sohalarga qaraganda o'zgacha xususiyatlarga ega.

1. Tezkorlik va yangi texnologiyalarga moslashuvchanlik. AKT sohasida texnologiyalar jadal rivojlanib boradi va shu sababli moliyaviy natijalar hisobini tezkorlik bilan yangilash talab etiladi. Yangicha xizmatlar, platforma o'zgarishlari, dasturiy ta'minot va ma'lumotlar bilan ishlash tizimlaridagi innovatsiyalar moliyaviy natijalar hisobiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

2. Raqamli aktivlar va ma'lumotlar xavfsizligi. AKT sohasida moliyaviy natijalar hisobida raqamli aktivlar va ma'lumotlar xavfsizligi asosiy o'rin tutadi. Korxona daromad manbalari ma'lumotlarni qayta ishlash, ularni saqlash va tahlil qilish bilan bog'liq bo'lgani sababli, ularning xavfsizligini ta'minlash moliyaviy hisobga bevosita ta'sir qiladi.

1-rasm. Xarajatlar va ularning moliyaviy natijalarga ta'siri[5]

3. Abonentlik asosidagi daromadlar. AKT sohasida obuna va uzoq muddatli shartnomalarga asoslangan daromadlar keng tarqalgan. Moliyaviy natijalar hisobida obunalar yoki qo'shma platformalar orqali daromadlar miqdorini aniqlash va tahlil qilish alohida ahamiyatga ega.

4. Dasturiy ta'minot va lisenziyalardan daromadlar. AKT sohasida moliyaviy natijalar hisobida dasturiy ta'minot sotish va lisenziyalashdan tushadigan daromadlar muhim o'rin tutadi. Lisenziyalar orqali foydalanuvchilarga ma'lum xizmatlar va dasturlardan foydalanish huquqi beriladi va bu daromadlar ko'pincha muntazam va uzoq muddatli daromad manbai bo'lib xizmat qiladi.

[5] Муаллиф томонидан тузилган

5. Ma’lumotlarni tahlil qilish va hisobotlarni avtomatlashtirish. AKT sohasida moliyaviy natijalarni tahlil qilish jarayonida ma’lumotlarni avtomatik ravishda yig‘ish va hisobotlarni tezkor tayyorlash imkonini beradigan texnologiyalardan foydalaniladi.

6. Mijozlarga yo‘naltirilgan moliyaviy hisobotlar. AKT sohasidagi korxonalarning moliyaviy natijalarini hisoblashda foydalanuvchilar talablari va ularning ehtiyojlarini hisobga olish muhimdir. Masalan, Internet provayderlari, dasturiy ta’minot ishlab chiqaruvchilari yoki striming xizmatlari foydalanuvchilardan keladigan daromadlar hisobini aniqlashda talablar va foydalanuvchilarning turli obunalarini hisobga olishadi.

Moliyaviy natijalar auditini tashkil etish va rejalashtirishda uslubiy yondashuvlarning to‘g‘ri qo‘llanilishi korxona moliyaviy natijalari ishonchliligi va haqqoniyligiga xizmat qiladi. AKT sohasidagi o‘zgacha talablar va xavflarni hisobga olgan holda, auditorlar zamonaviy texnologiyalar va uslubiy yondashuvlardan foydalanish orqali samarali audit jarayonini tashkil etadilar.

1-jadval

AKT sohasida moliyaviy natijalar auditida qo‘llaniladigan uslubiy yondashuvlar va ularning natijalari[6]

Yondashuv turi	E’tibor qaratiladigan soha	Natija
Dasturiy ta’minot tekshiruvi	Dasturiy ta’minot faoliyati va lisenzion xizmatlar	Daromadlar va xarajatlar hisobotda to‘g‘ri aks ettirilishini ta’minlash
Kiberxavfsizlik va ma’lumotlar xavfsizligi	Ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlash va xavflarni baholash	Kompaniya ma’lumotlar xavfsizligi va moliyaviy natijalariga ta’sir etuvchi xavflarni aniqlash
Ma’lumotlarni avtomatlashtirilgan tahlil qilish	Axborot tizimlari va ma’lumotlar tahlili	Moliyaviy natijalarni tezkor tekshirish va aniq xulosalar chiqarish imkoniyati

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sohasidagi moliyaviy natijalar auditi, an’anaviy sohalardan farqli o‘laroq, ko‘plab o‘ziga xos xususiyat va talablarni o‘zida jamlagan. Bu sohadagi auditorlik jarayonini samarali tashkil etish uchun quyidagi xulosalarga e’tibor qaratish lozim.

Dissertatsiyaning **“Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasi korxonalarida moliyaviy natijalar hisobi va auditining xozirgi holati”** deb nomlangan ikkinchi bobida AKT sohasidagi korxonalarda daromadlar va xarajatlarning sintetik va analitik hisobining xozirgi holati, hisob siyosatiga qo‘shimcha ravishda analitik hisob bo‘yicha yangi analitik subschyotlarni qo‘shish va ularni hisobini olib borish tartiblari, moliyaviy natijalar bo‘yicha tuzilgan moliyaviy hisobotlarni MHXSga transformatsiya qilish modellari va tartiblari ishlab chiqilgan.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sohasida moliyaviy natijalarni sintetik va analitik hisobini yuritish, ushbu sohadagi korxonalarning moliyaviy samaradorligini ta’minlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi. “O‘ztelekom” AK misolida, ushbu hisob tizimini takomillashtirish jarayonida quyidagi muhim masalalar tahlil qilinib, ilmiy asoslangan yondashuvlar ishlab chiqildi.

[6] Муаллиф томонидан тузилган

Foydani samarali boshqarish “O‘ztelekom” AK va “O‘zbekiston pochtasi” AJ kabi yirik kompaniyalar uchun ustuvor vazifa hisoblanadi. Buning uchun ikki tomonlama optimallashtirish usulidan foydalanish, ya’ni daromadlarni maksimallashtirish va xarajatlarni minimallashtirish maqsadga muvofiq. Ushbu model asosida moliyaviy natijalarni tahlil qilish, prognoz qilish va boshqarish imkoniyati yaratiladi.

2-jadval

“O‘ztelekom” AKda daromadlarni yuritish bo‘yicha taklif etilayotgan analitik subschyotlar hisobi va tartibi[7]

Sintetik hisob nomi	Xizmatlar turlari	Subschyot nomi	Schyot kodi	Bog‘la-nuvchi schyotlar	Daromad turi
Ishlar bajarish va xizmatlar ko‘rsatish-dan daromad-lar (9030 schyot)	Mobil aloqa xizmatlari	Ovozli qo‘ng‘iroqlar daromadlari	9031	4010, 4020, 4790, 5010, 5020, 6610, 6230, 9010, 9020, 9040, 9050	Mobil aloqa tarmog‘idan keladigan daromadlar
		Mobil internet xizmatlari daromadlari	9032		Mobil internet foydalanuvchilardan tushum
		Rouming va xalqaro qo‘ng‘iroq xizmatlari daromadlari	9033		Xalqaro aloqa va rouming xizmatlari
	Bulutli xizmatlar	Virtual serverlarni ijaraga berishdan daromadlar	9034		Korporativ bulutli xizmatlar
		Arxivlash va ma’lumotlarni saqlash xizmatlari daromadlari	9035		Zaxiralash va xavfsiz ma’lumot bazasi xizmatlari
		VPN va korporativ bulutli xizmatlardan daromadlar	9036		Himoyalangan tarmoq xizmatlari
	Televideniye xizmatlari	Televideniye obunalaridan daromadlar	9037		IP televideniye paketlaridan tushum
		Televideniye reklama xizmatlaridan daromadlar	9038		Televideniye orqali reklama joylashtirish
	Qo‘shimcha xizmatlar	Qo‘shimcha xizmatlardan daromadlar	9039		Qo‘shimcha xizmatlar
	Internet xizmatlari	Internet obunalari	9021		Uskunalar va binolar ijarasidan daromad
		Internet qurilmalari	9022		Muddatdan kechikkan to‘lovlar uchun undirilgan jarima
		Internet paketlari	9023		Qo‘shimcha jihoz va binolar ijarasidan tushum

Ikki tomonlama optimallashtirish moliyaviy faoliyat natijalarini yaxshilash uchun quyidagi asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

a) daromadlar manbalarini kengaytirish: asosiy va qo‘shimcha xizmatlardan tushumni oshirish.

b) xarajatlarni optimallashtirish: eng yuqori xarajatlar talab qiladigan xizmatlar bo‘yicha samaradorlikni oshirish va xarajatlarni qisqartirish.

[7] Муаллиф томонидан тузилган

Ushbu modelda har bir moliyaviy ko‘rsatkich matematik funksiya sifatida tasvirlanadi va ushbu funksiyalar asosida optimal qarorlar qabul qilinadi. Modelni ishlab chiqish bosqichlari quyidagilardan iborat.

1. Maqsad funksiyasini shakllantirish. Modelning asosiy maqsadi kompaniyaning foydasini maksimallashtirish. Maqsad funksiyasi quyidagi tenglama asosida shakllantiriladi:

$$F(x) = R(x) - C(x)$$

Bu yerda:

F(x) - umumiy foyda;

R(x) - daromadlar funksiyasi;

C(x) - xarajatlar funksiyasi.

Daromadlar funksiyasi: Har bir xizmat turi bo‘yicha mijozlardan tushumlarning umumiy qiymatini ko‘rsatadi:

$$R(x) = \sum_{i=1}^{n} a_i x_i$$

Bu yerda:

a_i - har bir xizmat turi uchun tushum koeffisiyenti;

x_i - xizmat turlari bo‘yicha hajm.

Xarajatlar funksiyasi: Xizmatlarni tashkil etish bilan bog‘liq xarajatlarni hisoblaydi:

$$C(x) = \sum_{i=1}^{n} b_i x_i$$

Bu yerda:

b_i - har bir xizmat turi bo‘yicha xarajat koeffisiyenti.

2. Cheklovlarni belgilash. Ikki tomonlama optimallashtirish modelida kompaniyaning iqtisodiy va texnik imkoniyatlarini hisobga olish uchun cheklovlar qo‘yiladi:

Resurslar cheklovi: Har bir xizmat turi uchun mavjud resurslarning chegarasi aniqlanadi:

$$x_i \leq L_i$$

Bu yerda L_i - xizmat turi bo‘yicha mavjud resurslar hajmi.

Xizmat ko‘rsatish quvvati: Har bir xizmatning infratuzilmasiga bog‘liq holda uning hajmi quyidagi formula bilan cheklanadi:

$$\sum_{i=1}^{n} k_i x_i \leq Q$$

Bu yerda - uskunalarning umumiy quvvati.

Foyda va xarajatlar muvozanati: Har bir xizmat turi uchun xarajatlar daromadlardan oshmasligi kerak:

$$R(x) \geq C(x)$$

3. Modelni to‘ldirish uchun ma’lumotlarni yig‘ish. Modelning samarali ishlashi uchun kompaniyaning moliyaviy faoliyatiga oid aniq ma’lumotlar yig‘ilishi kerak:

Har bir xizmat turi bo‘yicha daromadlar va xarajatlar ma’lumotlari. Mijozlar segmenti bo‘yicha ma’lumotlar (uy xo‘jaliklari, korporativ mijozlar, davlat tashkilotlari). Xizmat ko‘rsatish quvvati va infratuzilma imkoniyatlari haqida ma’lumotlar.

4. Modelni matematik yechimini topish. Matematik yechimni topish uchun chiziqli dasturlash usulidan foydalaniladi:

a) daromadlar va xarajatlar tenglamalarini dasturlash modeliga joriy qilish.

b) cheklovlar asosida optimal hajmlarni hisoblash.

c) modelning yechimini tahlil qilish va natijalarni chuqur ko‘rib chiqish.

Bu bosqichda optimal hajmlar aniqlanadi va kompaniyaning har bir xizmat turi bo‘yicha daromad va xarajatlar muvozanati tahlil qilinadi.

5. Natijalarni baholash va amalga oshirish. Tuzilgan modelning natijalari kompaniyaning moliyaviy faoliyatiga quyidagicha ta’sir etadi:

- har bir xizmat turi bo‘yicha optimal hajm: resurslardan samarali foydalanish uchun tavsiya etiladigan xizmat hajmlari aniqlanadi.

- foydani oshirish strategiyasi: daromadli yo‘nalishlarga qo‘shimcha resurslarni yo‘naltirish strategiyasi ishlab chiqiladi.

- xarajatlarni minimallashtirish choralari: xarajatlarni optimallashtirish uchun aniq qadamlar belgilanadi.

6. Modelni qayta ko‘rib chiqish. Model muntazam ravishda qayta ko‘rib chiqilishi kerak. Buning uchun:

a) har chorakda yoki yilda foyda va xarajatlar dinamikasi tahlil qilinadi.

b) modelga kiritilgan ma’lumotlar qayta tekshiriladi va yangilanadi.

c) rejadan chetlanish holatlari tahlil qilinib, zarur bo‘lsa, model qayta ishlanadi.

Modelni ishlab chiqish jarayoni kompaniyaning moliyaviy natijalarini aniq tahlil qilish va optimal qarorlar qabul qilish uchun ishonchli platforma yaratadi. Har bir bosqichda aniq vazifalarning bajarilishi “O‘ztelekom” AK va “O‘zbekiston pochtasi” AJning moliyaviy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu model asosida qabul qilingan qarorlar kompaniyalarning barqaror rivojlanishiga yordam beradi.

Iqtisodiy-matematik modellashtirish va chiziqli dasturlash usullari “O‘ztelekom” AK va “O‘zbekiston pochtasi” AJ kabi yirik kompaniyalarda moliyaviy natijalarni yaxshilash, resurslardan samarali foydalanish va sotish hajmlarini maksimal darajada oshirish uchun muhim vosita hisoblanadi. Bu usullar xizmat turlarini to‘g‘ri tartibga solish, xarajatlarni minimallashtirish va daromadni maksimallashtirish uchun qo‘llaniladi.

Modelni ishlab chiqish asoslari

1. Maqsad funksiyasini belgilash. Maqsad funksiyasi sotish hajmlari va resurslar taqsimotini optimallashtirish orqali umumiy foydani maksimallashtirishdan iborat. Bu quyidagi tenglama orqali ifodalanadi:

$$F(x) = \sum_{i=1}^{n} (a_i x_i - b_i x_i)$$

bu yerda:

F(x) - umumiy foyda;

a_i - har bir xizmat turi bo‘yicha o‘rtacha daromad koeffisiyenti;

b_i - har bir xizmat turi bo‘yicha xarajat koeffisiyenti;

x_i - xizmat turlari bo‘yicha sotish hajmi.

2. Cheklovlar. Chiziqli dasturlash modelini samarali qo‘llash uchun real cheklovlarni belgilash zarur:

Resurslar cheklovi:

$$\sum_{i=1}^{n} c_i x_i \leq R$$

bu yerda:

c_i - xizmat turlari uchun resurslar sarfi,

x_i - umumiy resurslar hajmi.

Xizmat ko‘rsatish quvvati cheklovi:

$$x_i \leq Q_i$$

bu yerda

Q_i - infratuzilma yoki texnik quvvat hajmi.

Foydani ta’minlash:

$R(x) \geq C(x)$

bu yerda *R(x)* - daromadlar, *C(x)*- xarajatlar.

“O‘ztelekom” AK va “O‘zbekiston pochtasi” AJning moliyaviy hisobotlari asosida xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MHXS) asosida asosiy moliyaviy koeffisiyentlar tahlilini o‘tkazamiz.

1. Likvidlik koeffisiyentlari. Likvidlik koeffisiyentlari kompaniyaning joriy majburiyatlarini qoplash uchun joriy aktivlarning yetarliligini baholashda qo‘llaniladi.

1.1. Joriy likvidlik koeffisiyenti (JLK):

$$JLK = \frac{\text{Жорий активлар}}{\text{Жорий мажбуриятлар}}$$

“O‘ztelekom” AK: $JLK = \frac{844,987,286}{844,987,286} = 1.0$

“O‘zbekiston pochtasi” AJ: JLK=303,703,348303,703,348=1.0JLK = \frac{303,703,348}{303,703,348} = 1.0

Har ikki kompaniyaning likvidlik holati barqaror, chunki joriy aktivlari joriy majburiyatlarni qoplash uchun yetarli.

2. Rentabellik koeffisiyentlari

Rentabellik koeffisiyentlari kompaniya faoliyatining daromadliligini baholashda muhim ahamiyatga ega.

2.1. Aktivlar rentabelligi (ROA):

$$ROA = \frac{\text{Соф фойда}}{\text{умумий активлар}} \times 100$$

“O‘ztelekom” AK: ROA=473,904,956844,987,286×100≈56.08%ROA = \frac{473,904,956}{844,987,286} \times 100 \approx 56.08\%

“O‘zbekiston pochtasi” AJ: ROA=809,996303,703,348×100≈0.27%ROA = \frac{809,996}{303,703,348} \times 100 \approx 0.27\%

2.2. Daromadning rentabelligi (Profit Margin):

$$ProfitMargin = \frac{\text{Соф фойда}}{\text{Умумий даромад}} \times$$

“O‘ztelekom” AK: ProfitMargin=473,904,956540,600,380×100≈87.66%Profit Margin = \frac{473,904,956}{540,600,380} \times 100 \approx 87.66\%

